

PENSIYA TIZIMI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

Pensiya tizimlari

O'zbekiston Respublikasida davlat va jamg'arib boriladigan pensiya tizimlari mavjud.

Davlat pensiya ta'minoti tizimida - pensiyalar fuqaroning ish haqi va ish stajidan kelib chiqqan holda tayinlanadi. Davlat pensiyasi solidar tizimga asoslangan bo'lib, bugungi kundagi ish beruvchilar va ishlovchilar tomonidan Pensiya jamg'armasiga to'langan ijtimoiy soliq hisobidan xozirgi pensionerlarga pensiya to'lanadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi – xodimning ish haqidan 0,1% miqdorda majburiy chegirilgan badallar hisobiga jamg'arilgan mablag'lar hisobidan to'lanadigan pensiya.

Bunda, fuqarolarga o'zlarining ish haqidan **ixtiyoriy ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga qo'shimcha badal** to'lash huquqi berilgan.

Pensiya huquqi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega, ekanligi belgilangan.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1993-yil 3-sentyabrda qabul qilingan bo'lib, fuqarolar qariganda - **yoshga doir**, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda - **nogironlik** hamda boquvchisiz qolganda - **boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari** bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

Yoshga doir pensiya olish uchun erkaklar **60 yoshga** to'lganda va ish staji kamida **25 yil** bo'lgan taqdirda, ayollar **55 yoshga** to'lganda va ish staji kamida **20 yil** bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Bunda, **kamida 7 yil** ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda to'liqsiz yoshga doir pensiya tayinlanadi.

Nogironlik pensiyasi qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogironligi belgilangan shaxslarga tayinlanadi. Bunda, nogironlik belgilangan faqtda quyidagicha ish stajiga ega bo'lishi talab etiladi:

- 23 yoshga qadar – 2 yil;
- 23 yoshdan 26 yoshga qadar – 3 yil;
- 26 yoshdan 31 yoshga qadar – 5 yil;
- 31 yoshdan 36 yoshga qadar – 7 yil;

- 36 yoshdan 41 yoshga qadar – 9 yil;
- 41 yoshdan 46 yoshga qadar – 11 yil;
- 46 yoshdan 51 yoshga qadar – 14 yil;
- 51 yoshdan 56 yoshga qadar – 17 yil;
- 56 yosh va undan oshganda – 20 yil.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a‘zolariga tayinlanadi. Bunda, vafot etgan fuqaroning farzandlariga 18 yoshga qadar (agar o‘qisa 23 yoshgacha) pensiya to‘lanadi.

Statistika

Joriy yil 1-iyul holatiga pensiya oluvchilar soni **4 202,5 ming** nafarni tashkil etadi. Shundan,

Yoshga doir pensiya – 3 477,9 ming nafar;

Nogironlik pensiyasi – 475,5 ming nafar;

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi – 249,1 ming nafar.

Bu jami **aholining 11 foizini** tashkil etadi.

№	Hududlar nomi	Aholi soni	Pensiya oluvchilarni umumiy soni	Aholiga nisbatan ulushi %da	shundan:		
					yoshga doir	nogironlik	boquvchisini yoʻqotgan
Respublika boʻyicha		37 859 700	4 202 535	11,1	3 477 949	475 510	249 076
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	2 040 700	225 315	11,0	173 318	35 888	16 109
2	Andijon viloyati	3 487 900	393 743	11,3	331 315	39 639	22 789
3	Buxoro viloyati	2 089 400	266 324	12,7	217 875	35 958	12 491
4	Jizzax viloyati	1 551 700	143 703	9,3	112 643	18 038	13 022
5	Qashqadaryo viloyati	3 673 700	377 245	10,3	306 760	45 741	24 744
6	Navoiy viloyati	1 103 300	141 084	12,8	106 243	26 053	8 788
7	Namangan viloyati	3 158 400	329 260	10,4	268 408	38 119	22 733
8	Samarqand viloyati	4 335 700	447 881	10,3	378 076	44 058	25 747
9	Sirdaryo viloyati	938 500	107 576	11,5	81 071	19 734	6 771
10	Surxondaryo viloyati	2 974 400	282 350	9,5	227 574	34 611	20 165
11	Toshkent viloyati	3 134 100	380 680	12,1	320 095	33 898	26 687
12	Fargʻona viloyati	4 181 000	495 634	11,9	432 289	43 058	20 287
13	Xorazm viloyati	2 045 700	233 034	11,4	192 255	28 066	12 713
14	Toshkent shahar	3 145 200	378 706	12,0	330 027	32 649	16 030

Pensionerlar soni 2025-yil 1-iyul holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **98,1 mingta (yoki 2,4 foizga)** oshgan.

2024-yilda jami **306,0 mingta pensiya yangi tayinlangan**. Shundan,

Yoshga doir pensiya – 242,7 ming nafar;

Nogironlik pensiyasi – 44,5 ming nafar;

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi – 18,8 ming nafar.

Pensiya formulasi

Pensiya miqdori* quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$P = PTM + OS + PU$$

Bunda,

PTM - pensiyaning tayanch miqdori;

OS – ortiqcha ish staji uchun pensiyaning oshirilishi;

PU - pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan.

Pensiyaning tayanch miqdori (PTM)- o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi miqdori;

Ma'lumot uchun: o'rtacha oylik ish haqini aniqlashda fuqaroning so'nggi 10 yillik mehnat faoliyatidagi eng yaxshi ketma-ket 5 yillik ish haqi inobatga olinadi. Bunda, pensiya hisoblash bazaviy miqdori (471 ming so'm) ning 12 karrasidan (5 652,0 ming so'mdan) yuqori ish haqi inobatga olinmaydi. Avvalgi yillardagi ish haqi o'tgan davrlarda ish haqining oshish koeffitsiyentini inobatga olgan holda zamonaviylashtiriladi, ya'ni bugungi kundagi qiymati hisoblanadi.

Ish staji uchun pensiyaning oshirilishi (OS) - pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiq har bir yil staj uchun o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi (boquvchisini yo'qotganlik pensiyasida 0,5 foiz) miqdori pensiyaga qo'shiladi.

Pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlar (PU)– O'zbekiston respublikasi oldidagi alohida xizmatlari uchun unvonga ega bo'lgan shaxslar (misol uchun, Xalq arbobi, O'zbekiston qahramoni va boshqa)ga qo'shimcha to'lov.

**pensiyalarning eng kam miqdori minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmasligi belgilangan.*

Misol: fuqaro (erkak) 40 yil ish stajiga ega, hisoblangan o'rtacha ish haqi miqdori 4,5 mln.so'mni tashkil qiladi, shuningdek "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" faxriy unvoniga ega. Pensiya miqdori quyidagicha hisoblanadi:

Pensiyaning tayanch miqdori – $4,5 \text{ mln.so'm} * 55\% = 2\,475 \text{ ming so'm};$

Talab qilingandan ortiqcha ish staji – 15 yil (umumiy 40 yil – talab qilingan 25 yil)ning har bir yili uchun 1%dan 15% ish staji uchun pensiya miqdori oshiriladi - $4,5 \text{ mln.so'm} * 15\% = 675 \text{ ming so'm};$

Pensiyaga qo'shiladigan ustama haq - "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" faxriy unvoni uchun bazaviy hisoblash miqdori(412 ming so'm) ning 160% miqdorida ustama haq qo'shib beriladi:

$$412 \text{ ming so'm} * 160\% = 659,2 \text{ ming so'm}$$

Jami pensiya miqdori: 2 475 ming so‘m + 675 ming so‘m + 659,2 ming so‘m = 3 809,2 ming so‘mni tashkil qiladi.

Pensiya tayinlashga murojaat

O‘zbekistonda pensiya tizimi bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Bugungi kunda, **yoshga doir va nogironlik pensiyalarini fuqarolarning murojaatisiz “proaktiv”** shaklda tayinlash joriy etilgan. Ya’ni, fuqaroga pensiya tayinlash uchun hech bir davlat organiga murojaat qilishi talab etilmaydi.

Proaktiv shaklda pensiyalar fuqaroning tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlarida mavjud elektron ma’lumotlari asosida inson omilisiz avtomatik tarzda hisoblanadi. Jumladan,

- Elektron hukumat platformasidan –shaxsga doir ma’lumotlar;
- “Yagona milliy mehnat tizimi”dan – ish staji ma’lumotlari;
- FHDYO axborot tizimidan – oila tarkibi ma’lumotlari;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot tizimidan – oliy o‘quv yurtlaridagi o‘qish davri ma’lumotlari;
- Xalq bankidan – 2005-2015-yillardagi ish haqi ma’lumotlari;
- Soliq qo‘mitasidan – 2016-yildan keyingi davr ish haqi ma’lumotlari.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari tayinlash uchun fuqarolar Davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali **elektron shaklda murojaat qilishlari mumkin.**

Eslatma! Kelajakda pensiya muammosiz tayinlanishi uchun fuqarolar hozirdan mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarini raqamlashtirilganligiga jiddiy e’tibor qilishlari kerak. Buning uchun ishlamaydigan fuqarolar Bandlikka ko‘maklashish markazlariga murojaat qilgan holda bepul ravishda mehnat daftarchalaridagi ma’lumotlarni raqamlashtirib olishlari mumkin.

Ishlovchi fuqarolar ish beruvchidan mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlari raqamlashtirib borilayotganligini talab qilishi lozim.

Fuqarolar ma’lumotlarni raqamlashtirilganligini my.gov.uz portali orqali tekshirib borishlari mumkin.

Pensiyaning qayta hisoblash

Tayinlangan pensiyalar quyidagi holatlarda qayta hisoblanishi mumkin:

- pensiya tayinlangandan so‘ng ish haqi va ish stajini tasdiqlovchi **qo‘shimcha ma’lumotlar aniqlanganda;**

- nogironlik **guruhi o'zgarganda;**
- nogironlik pensiyasi tayinlangandan so'ng kamida 1 yil ishlaganda;
- boquvchisi yo'qotganlik pensiyasi oluvchi **oila a'zolari soni o'zgarganda;**
- Prezident qaror va farmonlariga muvofiq **pensiya miqdorlari oshirilganda.**

Ma'lumot uchun: pensiya miqdori yil davomida tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) indeksi (inflyatsiya) darajasining o'sish sur'atlari hisobga olingan holda indeksatsiya qilinadi (oshiriladi).

Amaliyotda ko'plab hollarda fuqarolarning ish haqi ma'lumotlari arxiv idoralarida yoki tashkilotlarda **to'liq saqlanmaganligi va ish staji ma'lumotlari raqamlashmaganligi sababli pensiya mavjud ma'lumotlarga asosan tayinlanadi.**

Fuqarolarga ish haqi yoki ish stajini tasdiqlovchi qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish va pensiyani qayta hisoblash huquqi berilgan. Bunda, fuqarolar 3 oy davomida qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etganda pensiya birlamchi tayinlangan sanadan boshlab qayta hisoblab, o'tgan davr uchun pensiya farqi to'lab beriladi.

Pensiyalarni moliyalashtirish

Pensiya to'lovlari korxona va tashkilotlar tomonidan to'lanadigan **ijtimoiy soliq tushumlari hisobidan moliyalashtiriladi.** Bunda, ijtimoiy soliq stavkasi ish haqi fondidan byudjet tashkilotlari uchun 25 foiz va byudjetdan tashqari tashkilotlar uchun 12 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, xususiy tadbirkorlar (har oy uchun kamida bazaviy hisoblash miqdori (412 ming so'm)ning 1 barobari) va o'zini-o'zi band qilgan shaxslar tomonidan (bir yil uchun kamida bazaviy hisoblash miqdorining 1 barobari miqdori ihtiyoriy) ijtimoiy soliq to'lanadi.

Davlat pensiya tizimiga xodimlar tomonidan ijtimoiy soliq to'lanmaydi.

Shuningdek, pensiya to'lovlari uchun qonun bilan Jamg'armaga respublika byudjetidan transfertlar ajratish ham belgilangan.

Ma'lumot uchun: joriy yil iyul oyi holatiga 4,2 mln. nafar pensionerlarga bir oylik pensiya to'lovi miqdori 6,7 trln. so'mni tashkil etadi.

Pensiyalarni to'lash

Pensiyalar fuqarolarning tanloviga ko'ra **naqd pul shaklida yoki bank plastik kartalari** orqali amalga oshiriladi. Bunda, pensioner bank kartasi orqali pensiya olish uchun **tijorat bankini ihtiyoriy ravishda tanlaydi.**

Ma'lumot uchun: bugungi kunda fuqarolarning 85 foiziga naqdsiz va qolgan 15 foiziga naqd shaklda to'lovlar amalga oshirilmoqda.

Naqd pul shaklida to'lovlar Xalq banki sayyor kassalari tomonidan **har oyning 4-27 sanasida** tasdiqlangan grafiklarga asosan fuqarolarga yetkaziladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar va mustaqil harakatlanish imkoniyati yo'q pensionerlarga sayyor kassalar tomonidan ularning yashash joyiga yetkaziladi. Bunda, pensiyalarni naqd shaklda yetkazilganligi uchun fuqarolardan hech qanday xizmat haqlari to'lanmaydi hamda pensiyalarni yetkazish xarajatlari Pensiya jamg'armasi tomonidan qoplanadi.

Bank kartasi orqali to'lovlar **har oyning 5 sanasiga qadar yuklab** beriladi. Bunda, bank kartasi orqali oluvchilarning pensiyasiga har oyda pensiya pulining **1 foizi qo'shib** to'lanadi.

Ma'lumot uchun: pensioner pensiyasini bank kartasiga o'tkazish uchun arizani Pensiya jamg'armasi bo'limiga kelmasdan, tijorat banki filiali yoki mobil ilovasi orqali elektron shaklda rasmiylashtirish imkoniyati yaratilgan.

Pensiyalar **ishonchnoma** bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin.

Pensiyalardan chegirmalar

Pensiyalar sudning hal qiluv qarorlari asosida chegirilishi mumkin. Bunda, Majburiy ijro byurosi tomonidan pensionerning qarzдорligi miqdori va muddatlari bo'yicha ma'lumotlar axborot tizimi orqali elektron shaklda taqdim etilib, Pensiya jamg'armasi tomonidan avtomatik ravishda chegirma belgilanadi va fuqaroga sms xabar yuboriladi.

Chegirmalar miqdori bir oylik pensiya miqdorining 50 foizidan oshishi mumkin emas.

Pensiyalar to'lovini to'htatish

Pensiyalar fuqaro vafot etganda, xorijiy davlatga doimiy yashash uchun ko'chib ketganda, ozodlikdan mahrum etilganda, nogironlik muddati tugashi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oluvchi bola 18 yosh (o'qisa 23 yosh)ga to'lganda yoki pensiyaga bo'lgan huquqlari yo'qotgan boshqa hollarda to'xtatiladi.